

## O'QUVCHILARDA QO'SHIQ KUYLASH ORQALI MILLIY G'URUR VA MILLIY IFTIXOR TUYG'ULARINI TARKIB TOPTIRISH

**Abilov Muslim Normuxammadovich**

*JDFU Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti Musiqiy  
ta'lim kafedrasi dotsent v/b*

**Annotatsiya:** *Insonlar paydo bo'lgandan uning tarix doimiy ravishda tarbiya muammosini hal qilish bilan bog'liq ekaniga guvoh beradi. Chunki inson hayoti va turmush tarzi, xalq farovonligi, vatan ravnaqi, jamiyat taraqqiyoti asosida tarbiya turadi. Musiqa madaniyati darsida qo'shiq o'rganishning metodologik asosini belgilash uchun avvalo, xalq musiqasining shaxs kamolotiga ta'siri qay darajada ekanligini aniqlab olish lozim. Milliy an'anaviy qo'shiqlarning inson tarbiyasida tutgan muhim o'rni, uning ma'naviyatimizdagi ahamiyati xususida tatqiqot ishlari olib borilgan, deb ayta olmaymiz.*

**Kalit so'zlar:** *qo'shiq, vatanparvarlik, tarix, tarbiya, ravnaq, kamolot.*

Ma'lumki, qo'shiq umumbashariy madaniyatga xos, qo'shiqlarning mazmunmohiyatida muayyan xalqning oru-intilishi, quvonch va armoni o'z ifodasini topadi. Qo'shiqning o'ziga xos xususiyatlaridan biri uning his\*tuyg'uga boyligi, insonga estetik zavq bag'ishlashidir.

Qo'shiq o'rgatishda vatanparvarlik tarbiyasi juda keng qamrovli mavzu O'zingizga xech savol berganmisiz? Inson qachon qo'shiq aytadi? Qachon xirgoyi qilib yuksak kayfiyat bilan biror bir vazifani bajaradi?

Qachonki ona yurt tinch bo'lsa, osmon musaffo bo'lib, bog'u-roq'lar gullarga burkansa, ota-onalarimiz sog'-omon bo'lishsa farzandlarimiz sog'lom aqlli bilimli bo'lgandagina xayot zavqini yashash zavqini xis etasiz va bundan xuzur olasiz ana o'shandagina beixtiyor qo'shiq kuylaysiz raqsga tushasiz. Vatanning o'zi qo'shiq. Biz ta'lim berayotgan o'quvchilarimizga eng avvalo ona yurtni sevishni uni ardoqlashni unga sadoqat beilan sidqidildan xizmat qilish burch va vazifasi ekanligini tushuntirishimize kerak.

O'quvchilarda milliy g'ururni shakllantirish va takomillashtirish hozirgi kunda alohida e'tibor qaratiladigan muommalardan biri sanaladi. Zero, milliy g'ururni yuksaltirish orqali Vatanga, uning istiqboliga, o'tmishiga, qadryatlariga nisbatan sadoqat hamda ishonch tuyg'ularini tarbiyalash imkoniyatlari katta.

Bizga yaxshi ma'lumki musiqa darsi o'ziga xos faoliyat turlari bilan: musiqa asarini kuylash, musiqa asarini tinglash va tahlil qilish, musiqa bilan harakat qilish,

improvizatsiya ( erkin ijod ) kabi faoliyat turidan tashkil topadi. Musiqani tinglash jarayonida o'quvchilar muayyan miqdorda musiqaviy nazariy bilimlar oladilar, musiqa tinglash qobiliyati tajribasini to'playdilar. Jamoa bo'lib qo'shiq aytish, musiqa asboblarni chalish, musiqa ostida harakat qilish jarayonida ijrochilik malakalarining rivojlanishi o'quvchilarni o'quv mashg'ulotining faol, manfaatdor, emotsional qatnashchilariga aylantirib qo'yadi.

Qo'shiq vositasida milliy g'ururni shakllantirishdan oldin, "Gurur" va "Milliy gurur" tushunchalariga e'tiborni qaratmoq lozim. Gurur so'zi fahr, iftixor, quvonch kabi ma'nolarni anglatadi. Bu so'zlar mumtoz qo'shiqlarda, she'riyatda nasrda, xalq og'zaki folklori ijodida ma'nodosh sinonim sifatida foydalaniladi. O'quvchilarda milliy iftixor va milliy g'ururni tarkib toptorishda ma'naviy yuksak qadryatlarga ega bo'lgan o'zbek halqining madaniy meroslaridan bo'lgan kuy va qo'shiqlaridan foydalanish alohida ahamiyatga molik. Umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilari ongiga milliy g'urur tushunchasini singdirishda "Musika madaniyati" fani dasturiga kiritilgan rang-barang qo'shiqlarning mazmuni, ularning matni bilan qo'shiqlarning mazmuni, ularning matni bilan tanishish, unga monand ijro uslublarni belgilash va nihoyat jamoa bo'lib musiqali ijro etish orqali o'quvchilarning qalbiga singdirib boriladi.

5-6-7 sinflarda o'quvchilar yuqori sinfga o'tganligi sabab har bir sohada ularning mustaqilligi seziladi. Aynan musiqa yo'nalishida ularda o'sish, malakalari oshadi. Har bir o'quvchi madhiyani mustaqil ravishda kuylay oladi, uning mohiyatini chuqur his qilib qo'shiqning matni ohangini ongli ravishda tafakkur orqali tahlil qilish darajasiga erishadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quv dasturidan joy olgan qo'shiqlarda o'zbekona g'ururni, iftixorni his qilishkabi qo'shiqlarni kuylash ahamiyatlidir.

O'zbek musiqa madaniyatida she'riyat o'quvchilarda milliy g'ururni shakllantirish uchun boy manba hisoblanadi. Bu borada qo'shiqlardan samarali vosita sifatida foydalanish muhimdir.

Biroq darsda o'quvchi faoliyatining barcha turlariga va y ana o'quvchining ijrochiligiga, ijodkorligiga musiqani idrok qilish asos bo'ladi. Musiqani tushunish atrofda hayotni to'la to'kis idrok qilish uchun zarurdir, chunki provardida san'at asari va hayotdagi estetik narsaning mohiyatiga chuqur kirib borish qobiliyati maktab o'quvchisi shaxsining har tomonlama rivojlanishiga yordam beradi. Hozirgi zamon musiqa darsi huddi ana shu vazifani hal qilmog'i kerak. Ushbu vazifani bajarish uchun esa maktab o'quvchilariga faqat musiqaviy ta'lim emas, balki umuman dunyoviy tarbiya berish darajasi ham shunchalik yuqori bo'lishiga erishish lozim.

Bugungi kunda yoshlarga ko'proq vatanparvarlik mavzusidagi qo'shiqlarni iloji boricha ko'proq o'rgatishimiz kerakki, bu ularning o'zlarini takomillashtirishlari,

ma'naviy o'sishlari, hayot yo'llarini tanlashda masuliyatli qarorlar qabul qilishda ko'maklasha olish kerak.

O'zbekiston Respublikasining umumta'lim maktablarida hozirgi zamon musiqa ta'lim-tarbiyasining maqsadi- yosh avlodni milliy musiqa ma'rosimizga vorislik qila oladigan hamda umumbashariy musiqa boyligini idrok eta oladigan va qadrlaydigan madaniyatli ona vatanni sevuvchi ,erkin fikr yurita oladigan jaxon arenalarida o'zining jarangdor ovozi bilan O'zbekistonimiz madxini baralla kuylay oladigan inson darajasida voyaga yetkazishdan iboratdir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. SH.Mirziyoyev «Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz.
2. G.M.Sharipova “Musiqa tarbiyasi metodikasi” fanidan ma'ruzalar matni. “Toshkent” 1997 yil.
3. Mamirov Q. Musiqa vositasida yoshlarni axloqiy-estetik ma'naviyat ruhida tarbiyalash //Musiqliy ta'lim va ma'naviyat. Resp. Ilmiy-nazariy konf.mat.to'plami. – T.: Nizomiy nom. TDPU, 1998. – 3-5- b.
4. Hasanova, N. (2024). Musiqa darslarida o'quvchilarning umummadaniy Kompetensiyasini shakllantirish. Jurnal Interpretation and researches.
5. Hasanova N.H. The effectiveness of applying methods for organizing music lessons in general education schools. Science and Education in Karakalpakstan